**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
____________________
2024 yil “___” ________

# O‘ZBEKISTONNING MADANIYATI VA SAN’ATI TARIXI O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| Ta’lim sohasi: | 220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60220300 – Tarix |

**Chirchiq – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>MS 1706</td><td>O‘quv yili<br>2027-2028</td><td>Semestr<br>7</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>5</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi</td><td>60</td><td>90</td><td>150</td></tr>
</table>

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdagi maqsad** – Avvalo ta’lim – tarbiyaning uzviy birligini, o‘qitish davomida talabalarni g‘oyaviy – mafkuraviy saviyasini muttasil o‘sib borishini ta’minlash. Yoshlarga O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixini puxta bilim berish, ularni mustaqil Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash.

**Fanning vazifasi** – talabalarga O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san’ati tarixi nazariyasini chuqur o‘rgatish hamda talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, tarixiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajarishdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Mavzu. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi kursining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, tamoyil va usullari.**

O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi nazariyasi va tushunchasi. “O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi” fani uning hozir oliy o‘quv yurtlarda raqobatbardoshli, yuqori malakali tarixchi pedagoglarni tayyorlashda tarixan zaruratga aylanganligi. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixining umumiy mazmuni, xarakteri, yo‘nalishi va rivojlanishi bosqichlarining davrlashtirish tamoyillari. Fanni o‘rganish ob’ekti va predmeti, vazifasi.

**2- Mavzu. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixiga oid manba va bibliografik ko‘rsatkichlar.**

Birlamchi va ikkilamchi ilmiy manbalar, ularning turlari: 1) Arxeologik qazilma topilmalari, moddiy va ma’naviy madaniyat yodgorliklari, madaniy jarayonga oid xujjatlarning asl nusxalari, arxiv xujjatlari va boshqalar. 2) Madaniyat va madaniy taraqqiyotga oid qo‘lyozma, toshbosma va xozirgi zamon texnikasida chop etilgan asar (kitoblar).

**3- Mavzu. Eng qadimgi davr madaniyati va san’ati rivojlanish jarayonlari.**

Talabalarga O‘zbekistonning madaniyati va san’ati fanining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ibtidoiy davrning madaniy bosqichlari hamda ma’naviy madaniyati haqida ma’lumot berish. Qolaversa ilk diniy

e’tiqotlarning vujudga kelish shart-sharoitlari, Animizm, Totemizm, Magiya (sehrgarlik, afsungarlik), Fetishizm, Shomonizm o‘rgatish.

**4- Mavzu. Qadimgi davirda Markaziy Osiyo va Eron madaniyati.**

Talabalarga Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari, hududimizdagi ilk davlatlar madaniyati haqida ma’lumotlar berish. Qadimgi fors bitiklari va ilk yunon manbalari, Tarixiy-madaniy viloyatlar va qadimgi davlatlar, Qadimgi Baqtriya, Sug‘d (Sug‘diyona), Qadimgi Xorazm, Sak-massagetlar, Choch va Farg‘ona va Qadimgi Eron madaniyatini Markaziy Osiyoga tasiri, Ahamoniylar davlati madaniyati va san’ati o‘rganish.

**5- Mavzu. O‘zbekiston hududida milloddan avvalgi IV asr va milodiy IV asrda madaniyati va san’ati o‘ziga xos taraqqiyoti.**

Madaniyatlar tarixining qadimgi davri miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrgacha davom etganligi. Bu davrda jahon madaniyati tarixi rivojida yunon makedoniyaliklar, Ellinizm davlatlarining madaniy hayoti, san’ati va O‘rta Osiyoga tasiri. Yunon-Baqtriya madaniyati miqiyosida sharq elinistik madaniyati. Qang‘, Davan va Kushonlar madaniyati va san’ati ijtimoiy-iqtisodiy hayotga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligi. Diniy e’tiqodlarning madaniy hayotga tasiri.

**6- Mavzu. Ilk o‘rta asrlar davri madaniyati va san’ati**

Talabalarga ilk o‘rta asrlar davri madaniyati va san’ati hamda diniy qarashlar to‘‘g‘‘risida tushunchalar berishdan iborat. Ilk o‘rta asrlardagi tarixiy voqealar, ajdodlarimizning urf odatlari, axloq normalari va o‘sha davr madaniy hayotining aks etishi. Eftalitlar davri madanivati. Turk xoqonligi davri madaniyati, san’ati. Ilk o‘rta asrlarda diniy qarashlar. Mustaqil bekliklar vujudga kelishi va madaniy hayoti. Tanga pul, devoriy rasimlar va h.k.

**7- Mavzu. Arab xalifaligi madaniyati va san’ati**

Talabalarga arablar tarixidagi uch davr va uning o‘ziga xos xususiyatlari, arab xalifaligida diniy va dunyoviy fanlar taraqqiyoti hamda arab xalifaligi san`ati to‘‘g‘‘risida tushunchalar berishdan iborat. Arablar tarixidagi uch davr va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Arab xalifaligida diniy va dunyoviy fanlar taraqqiyoti. Arab xalifaligi san’ati.

**8- Mavzu. IX-XIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va san’at taraqqiyoti**

“Uyg‘onish-renesansi” tushunchalari va uning ilmiy amaliy iste’molga kirishishi. Uyg‘onish tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Ilk uyg‘onish davri, uning vujudga kelish sharoitlari va omillari. Ilm-fan ravnaqi, madaniyat rivoji. Har bir mintaqa va mamlakatlarda tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir o‘ziga xos bosqichi (davri) va tadrijiy (evolyusion) rivojlanish qonunlari asosida paydo bo‘lishi. Xalifalik tasarrufida bo‘lgan Movaraunnaxrda Islom

| | |
|---|---|
| | madaniyatining qaror topib rivojlanishi. Islom dini, buyuk xadisshunoslar. Sufiylik. Vatandoshlarimizning jahon tamadduniga xissasi.<br><br>**9- Mavzu. Mo‘g‘ullar iste’losi davrida madaniyatning toptalishi va asta sekin jonlanishi (XIII asr-XIVasrning birinchi yarmi)**<br>Mo‘g‘ul bosqinchilari tomonidan Markaziy Osiyoda ilk madaniy uyg‘onish-Islom renesansi davrida gullab yashnagan moddiy va ma’naviy madaniyatning toptalishi. Tarixan ijtimoiy siyosiy va madaniy ma’rifiy xayotda turg‘unlik, ya’ni majoziy ma’noda “uyqu” davri qaror topishi”<br><br>**10- Mavzu. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati, san’at va me’morchlik taraqqiyoti**<br>Buyuk Amir Temurning Samarqand taxtini egallab, mustamlakachilikka barham berishi. Madaniy yuksalishning otasi Temur saltanati-milliy davlatchilikning yuqori darajada yuksalishda bo‘lganligi. Temur va temuriylar davrida tarix ilmi rivoji va tarixchilar. Ikkinchi buyuk madaniy uyg‘onish-Temuriylar renesansining butun dunyo uchun ahamiyati.<br><br>**11- Mavzu. XVI-XIX asrlarda O‘rta Osiyo xoliklari ijtimoiy hayotida madaniyati va san’atining o‘ziga hosligi**<br>Talabalarga XV asr oxirlariga kelib temuriyzodalarning o‘zaro taxt talashishlari Xuroson va Movarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi va O‘rta Osiyoda xonliklarning vujudga kelishi hamda XVI-XIX asrlarda o‘zbek xonliklari davrida ijtimoiy-madaniy hayot va uning asosiy xususiyatlari, tarix fanlari rivoji, adabiy-badiiy jarayon, xattotlik, me’morchilik va musiqa san’ati taraqqiyoti haqida ma’lumot berish.<br><br>**12- Mavzu. O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida: me’morchilik, musiqa, tasviriy san’at, ilm-fan rivoji.**<br>Talabalarga O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida: Turkiston o‘lkasida xalq maorifi va adabiy-ma’rifiy jarayon. Ilm-fan va san’at rivoji. Me’morchilik, badiiy xunarmandchilik va tasviriy san’at. Yangi usul maktablar va rus madaniyatining O‘rta Osiyo xonliklar hayotiga singdirilishi. Mahalliy aholini ruslashtirish harakati olib borilishi.<br><br>**13-Mavzu.Turkistondagi uchinchi madaniy uyg‘onish-jadidlar renesasiya davrida milliy madaniyatning yangilanishi (XIX asr oxiri XX asrning boshlari)**<br>Birinchi va ikkinchi Islom madaniy uyg‘onishlarining tadrijiy davomi sifatida jadidchilik harakati-milliy uyg‘onish-jadidlar renesansi davri paydo bo‘lishining tarixiy shart-sharoitlari. Milliy uyg‘onish davrini yuzaga keltirgan jadid madaniyati va uning diniy-dunyoviylikka asoslangan tarmoq (turlari).<br><br>**14-Mavzu. Sovet mustabid tuzumi davrida o‘zbekiston madaniyati va san’ati** |

Talabalarga mustabid sovet tuzumi davrida O‘zbekiston madaniyati va san’ati sohasidagi yutuq va muammolar haqida batafsil ma’lumotlar berish. Sovet davlatining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati, uning mohiyati va maqsadlari. O‘zbekistonda maorif, oliy ta'lim, fan va adabiyot. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda fan va madaniyat. Sovet davrida O‘zbekiston SSR da madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimi. Qatag‘onlik siyosati va uning oqibatlari. Paxta ishi. Millatlarning ko‘chirib keltirilish siyosati va bu madaniy hayotga tasiri.

**15-Mavzu. Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda madaniy hayot va san’at**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Milliy mustaqil madaniyatni taraqqiy etishi davlat ahamiyati darajasiga ko‘tarilishi. Madaniyat sohasida milliy g‘oya ifodasi. Milliy davlatchilikni tiklanishi Prezidentlik boshqaruvini tashkil topishi (1990 yil 24-mart). Milliy ma’naviy madaniyat rivojining asosi “O‘zbek tiliga” davlat tili maqomini berilishi (1989 yil 21 oktabr). Xalq maorifining rivoji. Boshlang‘ich, o‘rta maxsus va oliy ta’limning tubdan isloh qilinishi. Yangilangan yangi istiqlolni targ‘ib etilishi, tarixga oid buyuk tarixiy shaxslarning xayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan badiiy tarixiy asarlarning paydo bo‘lishi. Mustaqillik yillarida ma’naviy va tarixiy merosning tiklanishi. O‘zbekistonda madaniyat va san’at taraqqiyoti.

**III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar Tarix fanida innovasiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi kursining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, tamoyil va usullari.
2. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixiga oid manba va bibliografik ko‘rsatkichlar.
3. Eng qadimgi davr madaniyati va san’ati rivojlanish jarayonlari.
4. Qadimgi davirda Markaziy Osiyo va Eron madaniyati.
5. O‘zbekiston hududida milloddan avvalgi IV asr va milodiy IV asrda madaniyati va san’ati o‘ziga xos taraqqiyoti.
6. Ilk o‘rta asrlar davri madaniyati va san’ati.
7. Arab xalifaligi madaniyati va san’ati.
8. IX-XIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va san’at taraqqiyoti.
9. Mo‘g‘ullar iste’losi davrida madaniyatning toptalishi va asta sekin jonlanishi (XIII asr-XIVasrning birinchi yarmi).

10. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati, san’at va me’morchlik taraqqiyoti.

11. XVI-XIX asrlarda O‘rta Osiyo xoliklari ijtimoiy hayotida madaniyati va san’atining o‘ziga hosligi.

12. O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida: me’morchilik, musiqa, tasviriy san’at, ilm-fan rivoji.

13. Turkistondagi uchinchi madaniy uyg‘onish-jadidlar renesasiya davrida milliy madaniyatning yangilanishi (XIX asr oxiri XX asrning boshlari).

14. Sovet mustabid tuzumi davrida o‘zbekiston madaniyati va san’ati.

15. Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda madaniy hayot va san’at.

**Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi kursining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, tamoyil va usullari.
2. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixiga oid manba va bibliografik ko‘rsatkichlar.
3. Eng qadimgi davr madaniyati va san’ati rivojlanish jarayonlari.
4. Qadimgi davirda Markaziy Osiyo va Eron madaniyati.
5. Ahamoniylar davlatida madaniyati va san’ati
6. Yunon-Baqtriya davlatida madaniyati va san’ati
7. Kushon davlatida madaniyati va san’ati
8. Eftalilar davlatida madaniyati va san’ati
9. Turk xoqonligi davlatida madaniyati va san’ati
10. Arab xalifaligi davlatida madaniyati va san’ati ( Ummaviylar davrida)
11. Arab xalifaligi davrida davlatida madaniyati va san’ati ( Abbosiylar davri)
12. Somoniylar davlatida madaniyati va san’ati
13. G‘aznaviylar davlatida madaniyati va san’ati
14. Qoraxoniylar davlatida madaniyati va san’ati
15. Xorazimshoxlar davlatida madaniyati va san’ati
16. Saljuqilar davlatida madaniyati va san’ati

| | |
|---|---|
| | 17. Mo‘g‘illar davlatida madaniyati va san’ati<br>18. Temuriylar davlatida madaniyati va san’ati<br>19. Mirzo Ulug‘bek davlatida madaniyati va san’ati<br>20. Boburiylar davlatida madaniyati va san’ati<br>21. Shayboniylar davlatida madaniyati va san’ati<br>22. Buxoro xonligi Ashtarxoniylar boshqaruvi davrida madaniyati va san’ati<br>23. Buxoro amirligi Mang‘itlar boshqaruvi davrida madaniyati va san’ati<br>24. Xiva xonligi madaniyati va san’ati<br>25. Qo‘qon xonligida madaniyati va san’ati<br>26. O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida: me’morchilik, musiqa, tasviriy san’at, ilm-fan rivoji.<br>27. IX-XIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va san’at taraqqiyoti.<br>28. Turkistondagi uchinchi madaniy uyg‘onish-jadidlar renesasiya davrida milliy madaniyatning yangilanishi (XIX asr oxiri XX asrning boshlari).<br>29. Sovet mustabid tuzumi davrida o‘zbekiston madaniyati va san’ati.<br>30. Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda madaniy hayot va san’at. |
| 3. | **VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:**<br>• O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixining qadimgi davri, milloddan avvalgi VI asrdan milodiy IV asrgacha davom etganligini, bu davrda Jaxon madaniyati tarixi rivojida, O‘zbekiston va dunyo davlatlari madaniyatidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida tushunchalar shakllanishi hamda ushbu davrga oid tarixiy madaniy xujjatlar bilan ishlash haqida ***bilimga ega bo‘lishi***;<br>• Talaba madaniyatlar tarixi ta’limida ilk o‘rta asrlar davri madaniyatining tarixi, ajdodlarimizning urf-odatlari ahloq normalari, bu davrdagi Islom madaniyati tarixi, Temuriylar davri madaniyati va boshqalarni to‘g‘ri tahlil etish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***.<br>• talaba madaniyatlar tarixini o‘rganish jarayonida ushbu fanning metodologik ilmiy nazariy asoslarini tamoyil va usullarini shu davrga oid manba va bibliografik ko‘rsatkichlarini, o‘rta osiyodagi ilk madaniy Islom uyg‘onishi ya’ni Islom renesansi davrini shuningdek xonliklar davriga oid madaniyat yodgorliklarini, O‘zbekiston tarixiga oid milliy va madaniy manbalarni chuqur egallash va amalga oshirish ***malakalariga ega bo‘lishi kerak***. |
| 4. | **VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash; |

| | |
|---|---|
| | • taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha og‘zaki savol javob, yozma ish yoki test topshirishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>**1.** Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. T., “Fan va texnologiya”, 2021<br>**2.** Asqarov A.A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent, Universitet, 2011<br>**3.** Q.Rajabov, F.Amonova, B.Qandov. O‘zbekiston tarixi, “Ochun”, Toshkent. 2024.<br>**4.** R.H. Murtazayeva, A.A. Odilov, A.A. Ermetov, K.D. Soipova “O‘zbekiston tarixi”. “Donishmand ziyosi” Toshkent:, 2020<br>**5.** B.J.Eshov, A.A.Odilov “O‘zbekiston tarixi” I jild. Toshkent:, 2013<br>**6.** Ilhomov Z.A. “O‘zbekiston tarixi”, “Innovatsiya Ziyo” Toshkent - 2022-yil.<br>**XI. Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Abdullayev X.U. San‟at tarixi. – Toshkent: San‟at. 2001.<br>2. Азизхўжаев А. Давлатчилик ва маданият. – Тошкент: Шарк, 1997.<br>3. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Т., 2000.<br>4. Зохидов П. Меьмор олами. – Тошкент: Қомус, 1996.<br>5. Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиѐти. – Т., 2000.<br>6. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997 йил.<br>7. Мусаев Н.У. Ўрта Осиѐда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан (Тош даври охиридан - XX аср бошларига қадар). – Тошкент: Фан, 2005.<br>8. Jaxon madaniyati tarixi. – T., Universitet. 2002 yil.<br>9. История мировой культуры. – Москва., 2000 г.<br>10. Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Культурология. – Т., 2006.<br>11. Sulaymonova F. Sharq va G‟arb. – Toshkent: Fan, 2000 yil.<br><br>**Axborot manbalari**<br>www.pedagog.uz (Respublika pedagogika talim muassasalari portali)<br>www.cspi.uz (Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti)<br>www.edu.uz (O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali)<br>www.unilibrary.uz (Yagona elektron kutubxona axborot tizimi) |

| | |
|---|---|
| | www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portali |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “29 ” august dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>Y.X. Gaffarov - CHDPU, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari nomzodi.<br>A.X. Nigmatov - CHDPU, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar**:<br>R. Tursunov – O‘zMU, “Jahon tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori.<br>K.A. Kraxmal - CHDPU, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi v.b. dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD). |